TARIX

Nazarov Obid Raximovich (t.f.n, dotsent, Guliston davlat universiteti; E-mail: o.nazarov@mail.ru),
Rayimjonov Ismoil Xoshimjon o‘g‘li (Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi; E-ail: ismoil90yil@gmail.com)

O‘RTA OSIYODA TIB ILMINING RIVOJLANISHI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (IX–XII asrlar)

Аннотация. *Maqoladagi o‘rta asr olimlarining aksariyati ensiklopedik bilimga ega edilar. Ular tibbiyot kabi ko'plab fanlarni yaxshi bilishgan. Qoraxoniylar davri tibbiyot fanining namoyandalari Muhammad al-Kaloniysi, al-Marvaziy, Najibuddin Samarqandiy, Ar-Roziy va ushbu soha namoyandalarining asarlarida boy tarixga ega bo‘lgan tibbiyot sohasidagi ko‘plab ma’lumotlar tahlil qilingan, davolash usullari, dorivor o‘simliklardan tayyorlangan turli kasalliklarni tashxislash, jarrohlik amaliyoti va davolash bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilishga e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari, tibbiyot fanining tarixining turli bosqichlari, shuningdek, ilmiy tahlil bo‘yicha ko‘plab manbalar va ma’lumotlar mavjud.*

Kalit so‘zlar: *tibbiyot qonunlari, ilmiy maktablar, aniq va tabiiy fanlar, egilish, ta’lim, parvarish, farmatsevt.*

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О РАЗВИТИИ МЕДИЦИНСКОЙ НАУКИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (IX–XII веках)

Аннотация. *Большинство средневековых ученых, представленных в статье, обладали энциклопедическими знаниями. Они хорошо разбирались во многих науках, в том числе в медицине. Анализ многих данных в области медицины, имеющей богатую историю, в трудах представителей медицинской науки караханидского периода Мухаммада аль-Каланиси, Аль-Марвази, Наджибуддина Самарканди, Аль-Рази и представителей этой области. Внимание уделяется методам лечения, анализу данных по диагностике, хирургии и лечению различных заболеваний, лечебным средствам, приготовленным из лекарственных растений. Кроме того, существует множество источников и данных о различных этапах истории медицинской науки, а также научного анализа. Потому что ранняя медицина и этапы ее развития являются продуктом многовекового человеческого мышления и опыта, а также сочетания навыков.*

Ключевые слова: *каноны медицины, научные школы, точные и естественные науки, воспитание, знахарь, фармацевт.*

SOME CONSIDERATIONS ON THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SCIENCE IN CENTRAL ASIA (IX–XII centuries)

Annotation. *Most of the medieval scholars in the article had encyclopedic knowledge. They were well versed in many sciences, including medicine. Analysis of many data in the field of medicine, which has a rich history, in the works of representatives of medical science of the Karakhanid period Muhammad al-Kaloniysi, al-Marwazi, Najibuddin Samarkandi, al-Razi and representatives of this field, methods of treatment, attention is paid to the analysis of data on the diagnosis, surgery and treatment of various diseases prepared from medicinal plants. In addition, there are many sources and data on various stages in the history of medical science, as well as scientific analysis.*

Keywords: *canons of medicine, scientific schools, exact and natural sciences, bending, education, look after, pharmacist.*

Kirish. O‘rta asrlarda yashagan olimlarning aksariyati qomusiy bilimga ega bo‘lgan. Ular ko‘pgina fanlarni shu jumladan, tibbiyot ilmini ham yaxshi bilganlar. O‘zining boy o‘tmish tarixiga ega bo‘lgan tibbiyot sohasidagi ko‘plab ma’lumotlar tahlili Qoraxoniylar davriga oid tibbiyot ilmi vakillari Muhammad Al-Kaloniysiy, Al-Marvaziy, Najiybuddin Samarqandiy, Al-Roziy va shu soha vakillarining asarlarida davolash usullari, tashxis qo‘yish, jarrohlik va dorivor o‘simliklardan tayyorlangan turli kasalliklarni davolashga doir ma’lumotlar tahliliga e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari, tibbiyot ilmi tarixining turli bosqichlariga tegishli ko‘plab manba va ma’lumotlar o‘rin olgan hamda ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Zero, ilk tabobat va uning taraqqiyot bosqichlari insonlarning ko‘p asrlik tafakkuri va tajriba mahsuli hamda ko‘nikmalarning yig‘indisi hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llaniladigan metodlar. Tadqiqotchi olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX–XII va XIV–XV asrlarda bamisoli buloqdek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbayi hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalardagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan Sharq Uyg‘onish davri Sharq renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olinganligini bejiz emas.

Shu bilan birga, ko‘plab tadqiqotchilar qayd etganidek, agar Yevropa Uyg‘onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san’at asarlari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan

bo‘lsa, Sharq Uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyati shundaki, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning rivojlanishda namoyon bo‘lgan. Bejizga emaski, nemis faylasuf olimi G.Gerderning quyidagi fikrlari “matematika, kimyo, tibbiyot sohasida musulmonlarning xizmati buyuk. Bu fanlarda musulmonlar Yevropaning muallimlari bo‘lib qoldilar”[1] degan yorqin fikri so‘zimizning isbotidir. Shu bois O‘rta asrlar davriga kelib, aniqlik borasida nisbatan davolash usullari, tashxis qo‘yish va dori-dormanlarni tayyorlash kabi muhim jarayonlar takomillashib borganligini, O‘rta asrlarda, xususan, Qoraxoniylar boshqaruvi davrida tibbiyot sohasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, hukmdor Bo‘g‘raxon davrida barpo etilgan kasalxonalar va tibbiy bilimlarni beradigan maxsus madrasalar faoliyatini o‘rta asrlarda haqli ravishda tibbiy bilim maskani deb atalishimiz bejiz emas. Qoraxoniylar boshqaruvi davrida nafaqat Samarqandda, balki ko‘pgina shaharlarda ham kasalxona va tibbiyot ilmi maskanlari mavjud bo‘lgan. Hullas faoliyat yurgizgan tibbiyot maskandarida o‘z davrining bilimdon va tajribali hakimlari hisoblangan Al-Kalonisiy, Al-Marvaziy, Najibuddin Samarqandiylar talabalarga tibbiyot ilmidan saboq berish bilan birga, tabiblik va dorishunoslik sohalarida ish olib borishgan. Ularning tibbiyotdan tashqari, riyoziyot va boshqa tabiiy fanlardagi tadqiqotlarini kuzatish, tahlil va qiyoslash metodlaridan foydalangan holda mavjud manbalar va ma’lumotlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Musulmonn renessansi, shuningdek, Ibn Sino kabi buyk hakim va olimlar boshlab bergan izlanishlar sulolaviy davlatlar jumladan Qoraxoniylar davrida yanada rivojlantirildi. Qoraxoniylar mamlakatni iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlantirishga harakat qildilar. Shaharlarda, ayniqsa davlatning poytaxti Samarqandda katta qurilish ishlari olib borildi. Boshqa binolar qatori, kasalxonalar, shifoxonalar ham qad ko‘tardi.

Masalan, o‘sha vaqtda Samarqand hukmdori Ibrohim ibn Nasr Tamg‘ach Bo‘g‘roxonning tashabbusi bilan 1066-yilda Samarqandda kasalxona barpo etildi. Kasalxona bir vaqtda tibbiy bilimlarni o‘qituvchi maxsus madrasa sifatida(maktab) ham faoliyat yurgizdi. Uni "Tibbiy bilim maskani" deb atadilar. Bu maskan va kasalxona xonning o‘ziga qarashli vaqf yerlar va korxonalardan keladigan daroamad bilan ta’minlanib turilardi. Kasalxona nizomiga binoan, u yerda faqat kasallargina emas, ular qatorida hech kimi yo‘q qariyalar va nogironlarga ham xonalar ajratilgan edi. Shunday qilib, bu kasalxona g‘aribxonalik vazifasini ham bajarardi.

Kasalxona uchun ajratilgan mablag‘ turli sohalar, masalan, umumiy mablag‘dan 10 foizi kasalxonada doimiy faoliyat olib boruvchi tabiblar uchun, 15 foizi kasallarning ovqati uchun, 5 foizi o‘tin – ko‘mir uchun, 2 foiz obdasta va sham sotib olish uchun, 3 foizi oshpaz uchun belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, qon oluvchi uchun 2 foiz, go‘rkovlar uchun 3 foiz pul ajratilgan. Demak, kasalxonada maxsus qon oluvchi mutaxassislar bo‘lgan. Kasalxonada vafot etgan g‘arib, kimsasiz bemor va nogironlami dafn etish kasalxona ma’muriyati zimmasiga yuklangan [2].

Samarqand kasalxonasi va tibbiy maktabiga o‘xshash muassasalar boshqa shaharlarda ham bo‘lgan. Ularda ham bilimdon va yaxshi tajribali hakimlar talabalarga dars berganlar. Shulardan Muhammad al-Kalonisiy, Qatton al-Marvaziy, Najibuddin Samarqandiylardir.

Muhammad al-Kalonisiy (Bahriddin Muhammad ibn Bahrom Kalonisiy as-Samarqandiy) Samarqandda tavallud topib shu yerda bilim olgan. Tug‘ilgan yili ma’lum emas, vafoti 1194-yil. Kalonisiy yaxshi tajribali tabib va dorishunos bo‘ligan. U dorishunoslikga oid "Kitob al-qarobodin" ("Murakkab dorilar haqida kitob") nomli asari ham bor. Muallif kitobida murakkab dorilarni tayyorlash va ularni ishlatish usullarini bayon etgan. Xususan, kukun dori (poroshok), hab dori (tabletka), qaynatma va dimlama dori, har xil surtma dorilar tayyorlash usullarini ko‘rsatib bergan. Kalonisiyning tibga oid asari ma’lum emas. U ko‘proq dorishuncbilan shug‘ullangan.

Qatton al-Marvaziy (Ayn az-Zam on al-Qatton al-Marvaziy) o‘z zamonasining ko‘zga ko‘ringan hakimlaridan biri bo‘lgan. Qaysi yilda tug‘ilib qaysi yilda vafot etgani ma’lum emas. Manbalarda aytilishicha Marvaziy XII asrda yashagan mashhur faylasuf Abu Abbos al-Muqriy shogirdi bo‘lgan. Demak, u XII asrda yashagan. Qatton al-Marvaziy Marv shahrida tavallud topgan. Shuning uchun "Marvaziy" tahallusini olgan. Olim tibbiyotdan tashqari, astronomiya, riyoziyot va boshqa tabiiy fanlar bilan ham shug‘ullangan. Lekin, asosiy kasbi tabiblik bo‘lgan. Bizga uning tibga oid "Rasoil tib" ("Tib haqida risolalar") nomli asari ma’lum. Kitobda olim nazariy-amaliy tibbiyot haqida birmuncha qisqaroq ma’lumot bergan.

Najibuddin Samarqandiy (Najibuddin Abu Homid Muhammad Ali ibn Umar as-Samarqandiy) XII asrning oxiri va XIII asrning boshida yashagan mashhur hakimlardan biridir. Taxallusidan ma’lumki samarqandlik bo‘lgan. Ammo tavallud topgan, yili ma’lum emas. Najibuddin Samarqandiy hayotining oxirida Marv shahrida yashagan. Najibuddin Samarqandiy hayotining oxirida Marv shahrida yashagan yerda fojiali hajok bo‘lgan. 1222-yilda mo‘g‘ul qo‘shinlari Marvni qamal qilib, uning devorini buzib, shaharga bostirib

kirganlar va hamma shahar aholisini qirib tashlaganlar. Shu qirg‘inda Najibuddin Samarqandiy ham halok bo‘lgan.

Najibuddin yoshligidanoq har xil bilimlarga qiziqa boshlagan. Xususan, tabiiy fanlarga oid kitoblarni juda qiziqib mutolaa qilgan. U madrasada o‘qishni tugatganidan so‘ng o‘z bilimini oshirish va kengaytirish maqsadida mustaqil ravishda bilimlami o‘rgana boshlaydi. Ayniqsa, tibbiyot ilmiga oid kitoblarni qiziqib mutolaa qilgan va bu fanni yaxshi o‘zlashtirib olgan. Bu haqda mashhur tarixchi ibn Abu Usayba shunday deb yozgan: "Najibuddin Samarqandiy tib ilmi sohasida har tomonlama chuqur bilimga ega edi. U qadimgi Yunoniston, Rum, Hindiston va boshqa buyuk mamlakatlar tib olimlarining asarlarini qunt bilan o‘rgandi va o‘zi ham buyuk hakim bo‘lib yetishdi” [3].

Ta’bir joizki, O‘zbekiston tibbiyoti tarixida Najibuddin Samarqandiy katta iz qoldirdi. U o‘zining tibga oid asarlari bilan o‘lkamizda tibbiyot ilmining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan alloma, deyishga haqlimiz.

Xulosa. Xullas, yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, xulosa qiladigan bo‘lsak, insoniyat o‘zining hayot tarzini, salomatligini va turmush ehtiyojlarini ta’minlash uchun ilk tibbiyotni tadrijiy rivojlanishiga e’tibor qarata boshlagan va shu tarzda o‘zlarining jamiyatda tutgan o‘rinlarini anglashlariga zamin tayyorlab ola bildilar. Tibbiyotning rivojlanishi, bir so‘z bilan aytganda, inson tafakkuri va mehnat mahsuli hamda ko‘nikmalari yig‘indisi hisoblanadi. Shu bois tabobat ilmi jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli, ayniqsa, o‘tmishdan avloddan avlodga o‘tib kelgan tibbiyotdagi tabiblik va davolashning xilma-xil usullari o‘rta asrlarda, ayniqsa, Qoraxoniylar bosharuvi davrida tibbiyot sohasi vakillari hisoblanmish Al-Kalonisiy, Al-Marvaziy va boshqalar aniqlik borasida nisbatan davolash usullari, tashxis qo‘yish, murakkab dori-darmonlarni tayyorlash kabi jarayonlarni takomillashtirib borganliklari o‘rta asr tibbiyotida yaqqol o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bois, haqli ravishda, o‘rta asrlar davriga oid asarlar va ilmiy meroslar faqat bir millat yoki bir xalqning emas, balki butun insoniyatning ma’naviy mulki ekanini yana bir bor e’tirof etish zarur, deb hisoblaymiz va bu merosdan butun bashariyat ravnaqi yo‘lida oqilona va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2005.
(2). A.Qodirov. Tibbiyot tarixi. T. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005, 156-bet.
(3) .A.A.Abduvaliev, I.E.Jo‘rayev. Sharq tabobati asoslari. Toshkent, Tibbiyot Akademiyasi, 2009, 49-bet.